



ILMIY-OMMABOP MATNLAR VA ULARNING ILMNI OMMALASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich,
Namangan davlat universiteti
Ingliz tili amaliy kursi
kafedrasida o'qituvchisi, doktorant
abdugaffor16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy-ommabop matnlar, ularning vujudga kelish tarixi, zaruriyati va ahamiyati kabi masalalar o'rganilgan. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va O'zbekistonda ilmiy-ommabop nashrlar kashshoflari, uning paydo bo'lishi va rivojiga tamal toshini qo'ygan olimlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-ommabop matnlar, ilmiy-texnik bilimlar, terminlar, tushunarlilik, jurnal, qiziqarli tasvir, ilm-fan targ'iboti, jamiyat taraqqiyoti

Аннотация: В данной статье изучаются такие вопросы, как научно-популярные тексты, история их создания, необходимость и значение. Также приведены сведения о пионерах научно-популярных изданий в США, Великобритании, России и Узбекистане, учёных, заложивших основы его возникновения и развития.

Ключевые слова: научно-популярные тексты, научно-технические знания, термины, понятность, журнал, интересная экспрессивность, популяризация науки, социальное развитие.

Abstract: This article examines issues such as pop-science texts, the history of their creation, necessity and significance. Information is also provided about the pioneers of pop-science publications in the USA, Great Britain, Russia and Uzbekistan, the scientists who laid the foundations for its emergence and development.

Key words: pop-science texts, scientific and technical knowledge, terms, simplicity, magazine, interesting expressiveness, popularization of science, social development.

Insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan beri o'zini o'rab turgan tevarak atrofdagi voqelikni anglash shaxsni har tomonlama komillikka yetishishini zaruriy sharti bo'lib kelgan. Shunga ko'ra inson o'zi va borliq haqidagi bilimlarni to'plashni qadimgi davrlardayoq boshlagan. Ilmiy bilimlarni tarqatish yozma adabiyot paydo bo'lishidan ancha oldin paydo bo'lgan va bu jarayon xalq og'zaki ijodi vositasida amalga oshirilgan. Bilimni ommaga yetkazish azal-azaldan o'zini ilmgaga bag'ishlagan mutafakkirlarning orzusi bo'lib kelgan. Antik davrlarda ilmiy ma'lumotlar qanday tarqalganligini ko'rsatuvchi qimmatli tarixiy manba o'sha davrda Platon, Suqrot, Epikur, Sitseron, Seneka va boshqa mutafakkirlarning yozgan maktublaridir.





Ilg'or fikrli olimlar hamma zamonlarda ilmni oddiy xalq orasida yoyishni muhim va sharaflı burch deb bilishgan. Tarix yangi ilmiy g'oyalarni targ'ib qilish uchun dor tagiga borgan ko'plab olimlarga guvoh. Galileo Galiley o'zining mashhur "Dialog" asari uchun qatl qilinishiga oz qolgan. Sodda, qiziqarli va yorqin ifodali shaklda yozilgan "Dialog" asari nafaqat olimning dunyo manzarasiga yangi ilmiy nuqtai nazarini himoya qilish, balki o'sha paytda Yevropadagi koinot haqidagi eskirgan g'oyalarni rad etish, Nikolay Kopernikning ilmiy qarashlari to'g'riligini isbotlash istagidan dalolat beradi. Shu bilan birga asar muallifning yangi ilmiy bilimlarni keng o'quvchilar ommasiga yetkazishga bo'lgan ishtiyoqini ham namoyish etadi.

AQSHda ilmiy-ommabop nashrlar va jurnallar kashshofi ixtirochi, tadbirkor, noshir, yozuvchi muharrir va noshir Hyugo Gernsbek (inglizchada Hugo Gernsback, 16 avgust 1884, Luksemburgda tug'ilib 19 avgust 1967 yili Nyu-Yorkda vafot etgan) bo'lib, jahonda birinchi bo'lib ilmiy fantastik "G'aroyib hikoyalar" jurnaliga asos solgan. Germaniyaning Bingen shahridagi Luksemburg sanoat va texnika maktabida elektrotexnika yo'nalishini bitirgan Gernsbek 1904 yili AQSHga ketadi. 1905 yilda Nyu Yorkda simsiz telegraf jihozlari ishlab chiqaruvchi va sotuvchi Telimco Wireless Telegraph Outfits (Telimko simsiz telegraf jihozlari, tarjima bizniki) kompaniyasini ochadi. 1908 yili mijozlarni informatsion jihatdan qo'llab quvvatlash va texnik bilimlarni tarqatish uchun Modern Electrics jurnalini ochadi va 1953 yilgacha u tomonidan asos solingan va nashr etilgan jurnallar soni 56 taga yetadi [1]. U yana ilmiy fantastika, televediniye va boshqa ko'plab terminlarni muomalaga kiritgan. Umri davomida 80dan oshiq ixtirolarini patentlashtirdi va ilmiy fantastik jurnallar otasi degan faxriy nomga sazovor bo'ldi [2]. Buyuk Britaniyada ilm-fanni ommalashtirishga katta hissa qo'shgan olimlardan biri mashhur fizik olim Maykl Faradey bo'lib, uning "Yorug'lik tarixi" kitobi hozirga qadar ham ilmiy-texnik yutuqlarni ommaga yetkazishni yorqin namunalardan biri bo'lib qolmoqda [3].

K. A. Timiryazev, I. I. Mechnikov, A. M. Butlerov, I. M. Sechenov, A. G. Stoletov I. P. Pavlov va boshqa bir qator rus olimlari Rossiyada, qolaversa Markaziy Osiyo davlatlarida ilmni ommalashuvida o'rinlari beqiyos bo'ldi. A. Gersen ilm ahliga murojaat qilib, ularni tabiatshunoslik haqidagi haqiqiy to'g'ri ma'lumotni umumlashtirish, uni tushunarli, sodda va oson tilda jamoatchilikka taqdim etishga chaqirdi. D. I. Pisarev xalq orasida, ayniqsa, tabiatshunoslik va matematikani ommalashtirish muhimligini ta'kidlab, jamiyat taraqqiyotining asosiy lokomotivi





fanning ommalashuvi va mamlakat uchun ilmiy-ommabop matnlar yoza oluvchi qalamkash iste'dodli yozuvchidan ko'ra ko'proq foyda keltirishi mumkin degan fikrni ilgari surdi. Bu fikrida u hamma olimlar ham o'z tadqiqotlari natijalarini ommabop tilda yoza olmasliklarini nazarda tutgan bo'lsa kerak. Shu jihatdan ilmiy-ommabop matnning samaradorligi afkor ommaning katta qismi tushuna olishi bilan bog'liq. Zamondoshlarining e'tirofiga ko'ra Pisarev ilmiy-ommabop sohaning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri edi. Sobiq ittifoq davrida ilmiy-ommabop asarlar tahriri va nashri sohasida o'z sohalarining mashhur olimlari S. I. Vavilov, A. Ye. Fersman, V. A. Obruchev, V. I. Vernadskiy va V. L. Komarovalar ilmiy-ommabop nashrlar turkumi prinsip va metodlarini ishlab chiqdilar va sohaga tamal toshini qo'ydilar [4].

Vavilov o'z ijodiy faoliyati davomida 150dan ortiq ilmiy-ommabop kitob va maqolalar yozgan. Uning rahbarligida "Klassiki nauki", "Memuari", "Literaturnie pamyatniki", "Biografii" va boshqa ko'plab ilmiy-ommabop turkumlar nashr etildi. U ilmiy-ommabop asarlarda ilmiy yangiliklarni yoritish bilan cheklanib qolmasdan ilmiy-ommabop usulning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan "ilm daraxti"ning o'sish jarayonini tasvirlab berish an'anasini ishlab chiqdi. O'quvchilar haqida qayg'urib, ularni ilm-fan bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilgan Vavilov ilmiy-ommabop matnga bir qator talablarni qo'ydi:

1. Ilm-fanning hozirgi holatini aks ettiruvchi eng yangi kashfiyotlarni yoritish;
2. Kashfiyot yoki ixtironing qanday amalga oshirilgani jarayonini ko'rsatib berish;
3. Aniq yakun va qiziqarli tasvir;
4. Xulosalarning aniqligi. [5]

Yana bir ajoyib ilmiy-ommabop kitoblar va maqolalar muallifi A. E. Fersman edi. Uning ilmiy faoliyati tahririyat va nashriyat ishlari bilan chambarchas bog'liq edi. "Qiziqarli mineralogiya", "Qiziqarli geokimyo", "Toshlar orasiga sayohat", "Qimmatbaho toshlar haqida hikoyalar", "Tosh haqida xotiralar" va boshqa bir qator asarlar uning qalamiga mansubdir. U o'z asarlarida tabiatdagi organik va noorganik moddalarning rivojlanish qonuniyatlarini dalillar asosida tushuntirib berdi [6].

V. A. Obruchev mashhur olim, geolog, geograf, Sibir va O'rta Osiyo tadqiqotchisi edi. Uning ilmiy-ommabop asarlar yaratishdagi ijodiy tajribasi shu bilan qimmatli ediki, u ilmiy-ommabop matnning nashr qiyofasini shakllantirishni faqat undagi badiiy asarning barcha elementlarini tizimli tahlil qilish sharti bilan mumkin, deb hisoblagan. U sayohat janriga ustunlik berib, o'z ijodida populyarizatsiyaning bir qator o'ziga xos





usullaridan foydalandi. Aniq faktlarni ko'rsatish bilan birga Obruchev fantastika, afsona va asotirlarga murojaat qildi. Uning dunyoga mashhur "Sannikov yeri" va "Plutoniya" asarlari xuddi shunday mazmunda taqdim etildi. Ilmiy ishonchli, dalillarga asoslangan materialning badiiy adabiyot, afsona va rivoyatlar bilan uyg'unlashuvi o'quvchilarga o'zgacha badiiy ta'sir ko'rsatdi, mutolaa zavqini oshirdi va uning asarlarini butun dunyoda mashhur bo'lishiga sabab bo'ldi [4]. Mashhur rus tabiatshunosi va akademigi K. A. Timiryazevning "Fan uchun ishla, xalq uchun qalam tebrat" so'zlari ko'plab Sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritgan olimlar uchun ijodkorlik shoriga aylandi. Nobel mukofoti sovrindori P. L. Kapitsa Stalinga yozgan maktublaridan birida Ittifoqdagi ilmiy ahvolni tanqidiy baholab, keng xalq ommasi orasida fanga qiziqish uyg'otish, ilm-fan targ'ibotini qizg'in olib borish, ommada ilm-fanga qiziqish uyg'otish kerakligini va buning jamiyat taraqqiyotidaga ahamiyatini ta'kidlab o'tgan edi [7].

Yurtimizda ilm-fanni ommalashtirish boyicha ishlarga tamal toshini qoygan nashr bu "Fan va turmush" jurnalidir. Jurnal dastlab 1933 yildan Ilm qo'mitasi va O'zbekiston Davlat plan komissiyasining organi sifatida «Sotsialistik ilm va texnika» nomida nashr etila boshlangan. Oyda bir marta chiqadigan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnika jurnalining o'sha yili uchta, kelgusi yili esa o'n ikkita soni chop etildi. Jurnal 1935 yildan «Sotsialistik fan va texnika» nomida O'zbekiston Fanlar komitetining organi sifatida faoliyatini davom ettirdi. 1939 yili esa uning nomi «Sosialistik fan va turmush» deb o'zgartirildi va O'zbekiston Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi fanlar komitetining «o'z-o'zidan o'qib ma'lumotni oshiruvchilar uchun o'zbek tilida oyda bir marta chiqatog'on ilmiy jurnal» bo'lib qoldi.

1940 yil sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali tashkil qilingach, jurnal uning tarkibiga kiritildi. Urush boshlanganidan keyin respublikamizdagi bir qancha vaqtli matbuot organlari qatori jurnalining chiqishi ham vaqtincha to'xtatildi. Nihoyat, 1957 yil martida jurnal hozirgi «Fan va turmush» nomi bilan qayta chiqa boshladi. O'sha vaqtda O'zbekiston Fanlar akademiyasiga atoqli olim Habib Abdullayev prezident etib saylangan edi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyotining direktori Ahmadjon Yoqubov Habib Abdullayevga urushdan oldin nashr etib kelingan, respublikadagi yagona ilmiy ommabop jurnalini qayta tiklash taklifi bilan murojaat etganida Habib Abdullayev: «Ma'qul, Siz marhamat, jurnalni chiqarishni tashkil etavering» deydi. Ahmadjon Yoqubov bu javobdan ikkilanib: «Axir





bu haqda respublika rahbariyatining ruxsati kerak-ku» deydi. Shunda Habib Abdullayev: «Buyog'iga men turibman, siz jurnalni bemalol chiqaravering» deydi qat'iy ishonch bilan. Shu alfozda «Fan va turmush» jurnali chiqa boshlagan.

1960 yillarning o'rtalarida yuqori idoraning majlislar zalida vaqtli matbuot mualliflariga bag'ishlangan katta yig'in vaqtida amaldor bir notiq so'zlay turib: «Fan va turmush» jurnali noqonuniy chiqqan» deb qoladi. Notiq so'zini tugatishi bilan jurnalning mas'ul kotibi Anvar Muhammadqulov minbarga ko'tarildi: «Qani endi barcha jurnallar ham «Fan va turmush» singari dastlab noqonuniy chiqib, el-yurt mehrini qozonib qonuniy jurnalga aylansa edi» deganida zal gulduros qarsakdan larzaga keladi. Jurnalni qayta tiklash hamda muharririyat ishini tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yish va ijodiy rivojlantirishda O'zbekiston Fanlar akademiyasi, xususan, uning o'sha yillardagi prezidenti Habib Abdullayev hamda akademik Toshmuhammad Qori-Niyoziy, o'sha davrda dunyoning deyarli barcha mamlakatlariga borib kelgani uchun «o'zbek Magelani» nomini olgan mashhur jahongashta professor Hamidulla Hasanov, atoqli jurnalist Ahmadjon Yoqubovlar katta rol o'ynadi.

«Fan va turmush» jurnali 1976-1982 yillarda yarim million nusxada chop etilib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat jurnalxonlar jon boshiga to'g'ri kelishi jihatidan sobiq Ittifoqda birinchi o'rinni egallagan – respublikaning har 19 nafar jurnalxoniga bittadan «Fan va turmush» to'g'ri kelgan. O'sha yillarda O'rta Osiyodagi qo'shni respublikalardan tashqari uzoq xorijning 26 mamlakatidagi vatandoshlarimiz ham «Fan va turmush» ni muntazam o'qib turishgan.

Jurnalga turli yillarda adabiyotshunos, faylasuf va jamoat arbobi, O'zbekiston ilm qo'mitasi raisi Otajon Hoshim (1933-1937 yillar), akademiklar: Toshmuhammad Qori-Niyoziy (1938 yil, 1940-1941 yil mayigacha hamda 1958 yildan to 1970 yil martigacha – umrining oxirigacha), Ibrohim Muminov (1957 yil), Muhammadjon O'rozboyev (1970 yil oktyabridan to 1971 yil mayigacha – umrining oxirigacha), Muzaffar Homudxonov (1972 yil yanvardan to iyun oyiga qadar – umrining oxirigacha), Yolqin To'raqulov (1974-1988 yillar), Komiljon Zufarov (1988-1992 yillar), Murod Sharifxo'jayev (1992-2002 yillar), Shuhrat Egamberdiyev (2002-2023 yillar) va hozirda akademik Akbar Hakimov bosh muharrirlik qilib kelmoqda. Jurnal 2023 yildan boshlab o'z sahifalarida o'zbek, ingliz va rus tillarida chop etilmoqda.[8]





Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Aldiss, Brian W., Billion Year Spree: The True History of Science Fiction (1973), Doubleday and Co., pp. 209–210
2. [The Hugo Awards by Year](#)". World Science Fiction Convention. 1960.
3. Ребров М. Грани популяризации науки или пути к читателю. М. Наука, 1981. С. 89.
4. Антонова С. Г. Специфика книги по искусству. (Теоретические аспекты редактирования) // Книга. Исследования и материалы. Сб. 66. М., 1993. С. 80, 82.
5. Ребров М. Грани популяризации науки или пути к читателю. М. Наука, 1981. С. 93.
6. М. Е. Раменская. [О дополнении к библиографии А. Е. Ферсмана](#) // Новые данные о минералах : Журнал. — 2014. — Вып. 49. — С. 129—132.
7. Антонова С.Г. Специфика книги по искусству. (Теоретические аспекты редактирования) // Книга. Исследования и материалы. Сб. 66. М., 1993. С. 82.
8. <http://fvat.uz/uz/page/1>

